



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,  
5-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari .....	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni .....	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari .....	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish .....	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari .....	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida .....	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli .....	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari .....	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli .....	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari .....	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi .....	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni .....	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish .....	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi .....	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar .....	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari .....	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии .....	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды .....	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей .....	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	



# UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA KASBGA YO'NALTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedova Muxabbat Axmedovna

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash  
 va malakasini oshirish instituti Nukus filiali katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirishning nazariy, tashkiliy va amaliy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilinadi. Unda o'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, shaxsiy imkoniyatlari hamda hududiy mehnat bozori ehtiyojlarini uyg'unlashtirish kasb tanlash jarayonining asosiy sharti sifatida talqin etiladi. Maqolada mavjud amaliyotdagi ayrim muammolar, jumladan kasbiy diagnostikaning yetarli tizimlashmagani, ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi, maktab va ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi aloqalarning epizodikligi yoritiladi. Tahlil va natijalar qismida maktabda kasbga yo'naltirishning takomillashtirilgan modeli, bosqichlari va samaradorlik ko'rsatkichlari jadval hamda sxema asosida ko'rsatilgan. Yakunda kasbga yo'naltirishni individual yondashuv, raqamli portfolio, psixologik-pedagogik diagnostika va ijtimoiy hamkorlik asosida rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbga yo'naltirish, umumiy o'rta ta'lim, kasbiy tanlov, o'quvchi qobiliyati, mehnat bozori, kasbiy diagnostika, individual ta'lim trayektoriyasi, maktab psixologi, ota-ona hamkorligi, kasbiy kompetensiya.

**Abstract:** This article provides a scientific analysis of the theoretical, organizational, and practical aspects of improving the career guidance system in general secondary education schools. It interprets the harmonization of students' interests, abilities, and personal potential with the needs of the regional labor market as a fundamental condition for the career selection process. The article highlights certain issues in current practice, including the lack of a systematic approach to professional diagnostics, weak collaboration with parents, and the episodic nature of links between schools and industrial entities. In the analysis and results section, an improved model of school career guidance, its stages, and effectiveness indicators are presented through tables and diagrams. Finally, scientific and practical proposals are developed to advance career guidance based on individual approaches, digital portfolios, psychological-pedagogical diagnostics, and social partnership.

**Key words:** career guidance, general secondary education, professional choice, student ability, labor market, professional diagnostics, individual educational trajectory, school psychologist, parental cooperation, professional competence.

**Аннотация:** В данной статье на научной основе анализируются теоретические, организационные и практические аспекты совершенствования системы профессиональной ориентации в общеобразовательных школах. В ней гармонизация интересов, способностей и личных возможностей учащихся с потребностями регионального рынка труда интерпретируется как основное условие процесса выбора профессии. В статье освещаются некоторые проблемы в существующей практике, включая недостаточную систематизацию профессиональной диагностики, слабую работу с родителями, а также эпизодический характер связей между школами и субъектами производства. В разделе анализа и результатов представлены усовершенствованная модель профориентации в школе, её этапы и показатели эффективности на основе таблиц и схем. В заключение разработаны научно-практические предложения по развитию профориентации на основе индивидуального подхода, цифрового портфолио, психолого-педагогической диагностики и социального партнерства.

**Ключевые слова:** профориентация, общее среднее образование, профессиональный выбор, способности учащихся, рынок труда, профессиональная диагностика, индивидуальная образовательная траектория, школьный психолог, сотрудничество с родителями, профессиональная компетентность.

## KIRISH

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimining vazifasi faqat o'quvchiga nazariy bilim berish bilan cheklanmaydi. Bugungi maktab o'quvchini mustaqil fikrlashga, hayotiy qaror qabul qilishga, ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishga va kelajak kasbini ongli tanlashga tayyorlashi zarur. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim bosqichida kasbga yo'naltirish masalasi o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va kelajakdagi mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy-psixologik qarorlardan biridir. Chunki kasb shaxsning nafaqat moddiy farovonligi, balki uning jamiyatdagi mavqeyi, o'zini anglash darajasi, ma'naviy qoniqishi va ijodiy imkoniyatlarini ham belgilaydi. Shu sababli maktabda kasbga yo'naltirish ishlari tasodifiy tadbirlar yoki bir martalik suhbatlar shaklida emas, balki uzluksiz, tizimli, ilmiy asoslangan pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish bugungi kunda bir necha omillar bilan dolzarblashmoqda. Birinchidan, mehnat bozori tez o'zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, xizmat ko'rsatish sohasi, yashil iqtisodiyot, muhandislik, IT, tibbiyot, pedagogika va kreativ industriyalar kabi yo'nalishlarda yangi kasblar paydo bo'lmoqda. Ikkinchidan, o'quvchilar ko'pincha kasbni shaxsiy qiziqish va qobiliyatiga qarab emas, balki oilaviy stereotip, tengdoshlar ta'siri yoki jamiyatda "obro'li" sanalgan kasblarga ergashish orqali tanlaydi. Uchinchidan, maktab, oila, mahalla, kasb-hunar ta'limi muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik yetarli darajada tizimlashmagan.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbga yo'naltirish tizimining asosiy maqsadi o'quvchiga "qaysi kasb yaxshi?" degan savolga tayyor javob berish emas, balki "men kimman, nimalarga qodirman, qaysi faoliyat menga mos, jamiyatga qanday foyda keltira olaman?" kabi savollar ustida mustaqil fikrlashni o'rgatishdan iboratdir. Bunday yondashuv o'quvchida mas'uliyatli tanlov madaniyatini shakllantiradi. Ilmiy adabiyotlarda kasbiy tanlov shaxsning qiziqishi, layoqati, qadriyatlari, ijtimoiy muhit va mehnat bozori ehtiyojlari kesishgan nuqtada yuzaga keladigan murakkab jarayon sifatida izohlanadi <sup>[2,22]</sup>.

Maktabda kasbga yo'naltirishning samaradorligi pedagogik jamoaning bu jarayonga qanday yondashishiga bog'liq. Agar kasbga yo'naltirish faqat yuqori sinflarda, bitiruv arafasida, ma'lumot berish shaklida olib borilsa, u o'quvchining ongli tanloviga yetarli ta'sir ko'rsata olmaydi. Aksincha, boshlang'ich sinflardan boshlab mehnatga ijobiy munosabat, o'rta sinflarda qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash, yuqori sinflarda esa individual kasbiy reja tuzish ishlari yo'lga qo'yilsa, o'quvchi bosqichma-bosqich kasbiy o'zini anglash darajasiga erishadi.

Kasbga yo'naltirish - bu o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari, sog'lig'i, ijtimoiy ehtiyojlari va mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda, uni ongli kasb tanlashga tayyorlashga qaratilgan pedagogik-psixologik jarayondir. Bu jarayon o'z ichiga kasbiy axborot berish, kasbiy maslahat, kasbiy diagnostika, kasbiy sinov, amaliy faoliyatga jalb etish va individual kasbiy reja tuzishni oladi.

Rus psixologi E.A. Klimov kasbga yo'naltirishni shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari va mehnat faoliyati obyektlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlovchi jarayon sifatida izohlaydi. Uning fikricha, kasb tanlashda insonning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Kasbga yo'naltirishning nazariy asoslarida bir nechta muhim yondashuvlar mavjud. Psixologik yondashuvga ko'ra, kasb tanlash shaxsning individual qobiliyatlari, temperament, xarakter, qiziqish va ehtiyojlari bilan bog'liq.

Amerikalik olim J. Hollandning kasbiy tipologiya nazariyasiga ko'ra, insonning kasbiy muvaffaqiyati uning shaxsiy tipi va kasbiy muhit o'rtasidagi moslikka bog'liq. Pedagogik yondashuv esa o'quvchining ta'lim jarayonida kasbiy tasavvurlari va kompetensiyalarini shakllantirishga urg'u beradi.

D. Super kasbiy rivojlanish nazariyasida kasb tanlashni inson hayotining turli bosqichlarida davom etadigan uzluksiz jarayon sifatida talqin qiladi. Sotsiologik yondashuv kasb tanlashga oilaviy muhit, jamiyatdagi qadriyatlar, iqtisodiy holat va mehnat bozori ta'sirini o'rganadi <sup>[3,58]</sup>.

Kasbga yo'naltirish faqat "kasb tanlash" bilan yakunlanadigan jarayon emas. U shaxsning kasbiy o'zini anglash, o'z imkoniyatini baholash, maqsad qo'yish, rejalashtirish va tanlov uchun javobgarlikni his qilish jarayonidir. O'quvchi qanchalik erta o'z qiziqish va imkoniyatlarini anglay boshlasa, kasbiy faoliyatini shunchalik ongli belgilaydi.

Kasbga yo'naltirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi bilan 10–11-sinf o'quvchisining kasb haqidagi tasavvuri, fikrlash darajasi va qaror qabul qilish imkoniyati bir xil emas. K.K. Platonovning ta'kidlashicha, shaxsning kasbiy shakllanishi bosqichma-bosqich rivojlanib boradi va har bir yosh davrida o'ziga xos pedagogik yondashuvni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda kasbga yo'naltirishning asosiy vazifasi mehnatga hurmat, kasblarga qiziqish va ijtimoiy foydali faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirishdir. Bu bosqichda rolli o'yinlar, ertak, rasm, suhbat, kasb egalari haqida hikoyalar, ota-onalar kasbi bilan tanishish samarali hisoblanadi.

5-7-sinflarda o'quvchilarda qiziqishlar kengayadi, ular o'z qobiliyatini tengdoshlari bilan taqqoslay boshlaydi. Bu davrda fanlar bilan kasblar o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish, to'garaklar, loyiha ishlari, amaliy mashg'ulotlar, kichik kasbiy sinovlar tashkil etish lozim.

8-9-sinflarda o'quvchi kelajak ta'lim yo'nalishi haqida jiddiyroq o'yay boshlaydi. Bu bosqichda kasbiy diagnostika, individual suhbat, ota-onalar bilan maslahat, kasb-hunar ta'limi muassasalari bilan tanishtirish, hududiy mehnat bozori haqida ma'lumot berish zarur.



10-11-sinflarda esa kasbga yo'naltirish aniq rejalashtirish bosqichiga o'tadi. O'quvchi o'zining qiziqishi, fanlardan tayyorgarligi, kirish imtihonlari, oliy yoki professional ta'lim imkoniyatlari, kelajakdagi bandlik istiqboli asosida individual kasbiy trayektoriya ishlab chiqishi kerak.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv hamda kasbiy o'zini o'zi aniqlash nazariyalari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida kasbga yo'naltirish tizimining mazmuni, shakllari va samaradorligini aniqlash maqsadida nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi.

Nazariy bosqichda mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar hamda kasbiy yo'naltirishga doir mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Xususan, o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlari va mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi bog'liqlikni yorituvchi ilmiy manbalar qiyosiy o'rganildi.

Empirik tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, anketa-so'rovnomalar va qiyosiy tahlil metodlari qo'llanildi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning kasblar haqidagi bilimlari, kasbiy qiziqishlari, kelajak rejalari hamda kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi o'rganildi. Shuningdek, sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, maktab psixologlari va ota-onalarning kasbga yo'naltirish jarayonidagi ishtiroki ham tahlil qilindi.

Olingan ma'lumotlar pedagogik tahlil, umumlashtirish va qiyoslash usullari yordamida qayta ishlanib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirishning samarali yo'nalishlari aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning amaliy mexanizmlari va tavsiyalari ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko'ra, maktabda kasbga yo'naltirishni takomillashtirish quyidagi natijalarni beradi:

*Birinchidan*, o'quvchilarning kasblar haqidagi tasavvuri kengayadi. Ular faqat mashhur kasblarni emas, balki hududiy va global mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yangi kasblarni ham bilib boradi.

*Ikkinchidan*, kasb tanlashda tasodifiylik kamayadi. O'quvchi o'z qiziqishi, qobiliyati, fanlardan tayyorgarligi va kelajak maqsadini tahlil qilishga o'rganadi.

*Uchinchidan*, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzilish qisqaradi. Maktab o'quvchini real hayotga yaqinlashtiradi, kasblarni amaliy faoliyat bilan bog'laydi.

*To'rtinchidan*, ota-onalarning pedagogik madaniyati oshadi. Ular farzandiga bosim o'tkazuvchi emas, balki maslahat beruvchi va qo'llab-quvvatlovchi hamkoraga aylanadi.

*Beshinchidan*, maktabda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkoniyati kuchayadi. Har bir o'quvchi o'zining kuchli tomonlari, rivojlantirishi kerak bo'lgan ko'nikmalari va kelajak rejasini aniqroq belgilaydi.

Kasbga yo'naltirish jarayonida fan o'qituvchilarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Chunki o'quvchi kasb haqidagi dastlabki amaliy tasavvurlarni ko'pincha fanlar orqali shakllantiradi. Masalan, matematika fani muhandislik, iqtisodiyot, dasturlash, arxitektura, logistika kabi sohalar bilan bog'liq. Biologiya tibbiyot, farmatsevtika, ekologiya, agronomiya va biotexnologiya yo'nalishlariga qiziqish uyg'otadi. Ona tili va adabiyot jurnalistikasi, tarjimonlik, pedagogika, tahririyat, madaniyatshunoslik sohalariga yo'l ochadi. Informatika esa dasturlash, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt, grafik dizayn va raqamli xizmatlar bilan bog'lanadi. Shu sababli har bir fan o'qituvchisi dars jarayonida o'z fanining hayotiy va kasbiy ahamiyatini ko'rsatib borishi zarur. Bu o'quvchida "bu fan menga nima uchun kerak?" degan savolga aniq javob beradi. O'quvchi fan bilan kasb o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsa, uning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi ortadi.

Fan o'qituvchilari quyidagi ishlarni amalga oshirishi mumkin:

- dars mavzusini real kasbiy vaziyatlar bilan bog'lash;
- mutaxassislarfaoliyatidanmisollarkeltirish;
- kasbga oid loyiha va amaliy topshiriqlar berish;
- o'quvchining fan bo'yicha qobiliyatini kuzatib borish;
- sinf rahbari va psixologga o'quvchi moyilligi haqida ma'lumot berish;
- fan to'garaklarini kasbiy yo'nalish bilan boyitish.

Masalan, fizika darsida elektr energiyasi mavzusi o'tilganda energetik, muhandis, texnik, elektromontyor, ekologik energiya mutaxassisi kabi kasblar bilan bog'lash mumkin. Tarix darslarida arxivshunos, muzey xodimi, tarixchi, gid, xalqaro munosabatlar mutaxassisi kabi yo'nalishlar tushuntiriladi. Bunday integratsiya o'quvchining kasb haqidagi tasavvurini kengaytiradi.

Kasbga yo'naltirishda maktab psixologi asosiy diagnostik va maslahat beruvchi subyektlardan biridir. Psixolog o'quvchining qiziqishi, emotsional holati, muloqotga kirishish qobiliyati, liderlik xususiyatlari, diqqat, xotira, tafakkur va motivatsiya darajasini o'rganadi. Biroq psixologik testlar yakuniy hukm sifatida emas, balki maslahat beruvchi vosita sifatida qo'llanishi kerak. Chunki o'quvchining qobiliyati vaqt o'tishi bilan rivojlanadi, qiziqishlari o'zgaradi, ijtimoiy tajribasi boyiydi.

Sinf rahbari esa o'quvchi, ota-ona, fan o'qituvchilari va maktab psixologi o'rtasidagi bog'lovchi shaxs hisoblanadi. U o'quvchining kundalik xulqi, jamoada tutgan o'rni, tashabbuskorligi, mas'uliyati va qiziqishlarini bevosita kuzatadi. Shu bois kasbiy yo'naltirishda sinf rahbari tomonidan yuritiladigan "kasbiy kuzatuv daftari" yoki elektron portfolio muhim ahamiyatga ega.

Maktab psixologi va sinf rahbari hamkorligida quyidagi ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Har o'quv yili boshida o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlash.
2. 7-8-sinflardan boshlab kasbiy moyillik diagnostikasini o'tkazish.
3. 9-sinfda o'quvchi va ota-ona ishtirokida individual kasbiy maslahat tashkil etish.
4. 10-11-sinflarda oliy va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha aniq reja tuzish.
5. Har bir o'quvchi uchun kasbiy rivojlanish portfoliosini shakllantirish.

Kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirishda asosiy masala - o'quvchini tayyor kasbga majburlash emas, balki uni ongli tanlovga tayyorlashdir. Ba'zan maktab amaliyotida o'quvchiga "sen shifokor bo'l", "sen o'qituvchi bo'l", "sen texnikaga qiziqasan, demak muhandis bo'lasan" kabi to'g'ridan-to'g'ri tavsiyalar beriladi. Bunday yondashuv o'quvchining ichki rivojlanish jarayonini cheklashi mumkin. To'g'ri yondashuv esa o'quvchiga turli imkoniyatlarni ko'rsatish, o'zini sinab ko'rishga sharoit yaratish va qaror qabul qilishda yordam berishdir.

Kasbga yo'naltirishda yana bir muhim jihat-kasblarni "obro'li" va "obro'siz" deb ajratishdan voz kechishdir. Har bir halol mehnat jamiyat uchun zarur. Maktab o'quvchida kasblarga nisbatan hurmatli, real va xolis munosabatni shakllantirishi kerak. Aks holda ayrim kasblarga ortiqcha talab, boshqalariga esa e'tiborsizlik paydo bo'ladi. Bu esa mehnat bozoridagi nomutanosiblikni kuchaytiradi.

Shuningdek, kasbga yo'naltirishda gender stereotiplarini bartaraf etish ham muhimdir. Qizlar faqat ayrim "an'anaviy" sohalarga, o'g'il bolalar esa faqat texnik kasblarga yo'naltirilmasligi kerak. Har bir o'quvchi qobiliyati, qiziqishi va salohiyatiga qarab o'z yo'lini tanlash huquqiga ega. Bu ta'limdagi adolat va teng imkoniyatlar tamoyiliga mos keladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Har bir maktabda kasbga yo'naltirish bo'yicha yillik kompleks dastur ishlab chiqilishi lozim. Dasturda sinflar kesimida tadbirlar, diagnostika, maslahat, ekskursiya va ota-onalar bilan ishlash shakllari aniq belgilanishi kerak.
2. 5-11-sinflar uchun "Kasbiy rivojlanish portfoliosi" joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bu portfolio o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va kasbiy rejasini muntazam kuzatishga yordam beradi.
3. Har bir fan o'qituvchisi o'z fani bilan bog'liq kasblar ro'yxatini ishlab chiqib, darslarda muntazam foydalanishi zarur.
4. Maktab psixologlari uchun kasbiy diagnostika metodikalari bo'yicha amaliy seminarlar tashkil etilishi kerak.
5. Ota-onalar bilan kasb tanlash madaniyati bo'yicha tizimli ishlash yo'lga qo'yilishi lozim.
6. Hududdagi korxonalar, tashkilot, kasb-hunar maktabi, kollej, texnikum va oliy ta'lim muassasalari bilan memorandumlar tuzilib, muntazam hamkorlik tashkil etilishi kerak.
7. O'quvchilar uchun zamonaviy kasblar, mehnat bozori, zarur ko'nikmalar va ta'lim yo'nalishlari haqida elektron platforma yoki maktab ichki ma'lumotlar bazasi yaratilishi zarur.



8. 9-11-sinf o'quvchilari uchun individual kasbiy maslahat tizimi joriy etilishi kerak. Bunda o'quvchi, ota-ona, sinf rahbari va psixolog birgalikda ishtirok etishi lozim.
9. Kasbga yo'naltirish natijalari faqat tadbirlar soni bilan emas, balki o'quvchilarning kasbiy xabardorligi, tanlovga tayyorligi, motivatsiyasi va individual rejasining mavjudligi bilan baholanishi kerak.
10. Maktablarda "Kasblar laboratoriyasi" yoki "Kasbiy sinov burchagi" tashkil etilib, o'quvchilarga turli kasblarga oid oddiy amaliy topshiriqlarni bajarish imkoniyati yaratilishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish yoshlarning kelajak hayotiga, ta'lim yo'nalishini to'g'ri tanlashiga va mehnat bozorida o'z o'rnini topishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayondir. Kasbga yo'naltirishni samarali tashkil etish uchun u uzluksiz, individual, diagnostik asoslangan va amaliy yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud amaliyotda kasbga yo'naltirish bo'yicha muayyan ishlar bajarilayotgan bo'lsa-da, ularni yagona tizimga birlashtirish, o'quvchi shaxsiga yo'naltirish, ota-onalar va ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ayniqsa, raqamli kasbiy portfolio, kasbiy diagnostika, fan va kasb integratsiyasi hamda real mehnat muhiti bilan tanishtirish samarali natija beradi. Kasbga yo'naltirishning bosh mezonini o'quvchining qaysi kasbni tanlagani bilangina emas, balki u tanlovni qanchalik ongli, mustaqil va mas'uliyat bilan amalga oshirgani bilan belgilanadi. Shunday ekan, maktabning asosiy vazifasi o'quvchiga tayyor yo'lni ko'rsatish emas, balki unga o'z yo'lini topish uchun zarur bilim, tajriba, maslahat va motivatsiya berishdan iboratdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. - Toshkent: Adolat, 2024. - 18 b.
2. OECD. Career Guidance and Public Policy: Bridging the Gap. - Paris: OECD Publishing, 2004. - 171 p.
3. OECD. Career Ready? How Schools Can Better Prepare Young People for Working Life in the Era of COVID-19. - Paris: OECD Publishing, 2020. - 75 p.
4. Covacevich C., Mann A., Besa F., Diaz J., Santos C. Indicators of Teenage Career Readiness: An Analysis of Longitudinal Data from Eight Countries. - Paris: OECD Publishing, 2021. - 116 p.
5. OECD. The State of Global Teenage Career Preparation. - Paris: OECD Publishing, 2025. - 142 p.
6. UNESCO. The Bridge from Secondary School to Tertiary Education and Employment. - Paris: UNESCO Publishing, 2016. - 108 p.
7. UNESCO. Investing in Career Guidance. - Paris: UNESCO Institute for Lifelong Learning, 2021. - 96 p.
8. International Labour Organization. Handbook for Career Development. - Geneva: ILO Publications, 2024. - 124 p.
9. European Training Foundation. Learning for Careers: Career Guidance in the European Training Foundation Partner Countries. - Turin: ETF Publishing, 2024. - 88 p.
10. Watts A.G. Career Guidance and Public Policy. - Cambridge: National Institute for Careers Education and Counselling, 2000. - 64 p.
11. Super D.E. A Life-Span, Life-Space Approach to Career Development // Brown D., Brooks L. Career Choice and Development. - San Francisco: Jossey-Bass Publishers, 1990. - P. 197-261.
12. Parsons F. Choosing a Vocation. - Boston: Houghton Mifflin Company, 1909. - 165 p.
13. Holland J.L. Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. - Odessa, Florida: Psychological Assessment Resources, 1997. -
14. Savickas M.L. Career Construction Theory and Practice // Brown S.D., Lent R.W. Career Development and Counseling. - Hoboken: John Wiley & Sons, 2013. - P. 147-183.
15. Ginzberg E., Ginsburg S.W., Axelrad S., Herma J.L. Occupational Choice: An Approach to a General Theory. - New York: Columbia University Press, 1951. - 271 p.
16. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T: Sano-standart, 2015. - 120 b.
17. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. - 256 b.
18. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. - T: Noshir, 2010. - 360 b.
19. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Xoliqberdiyev K.M. Pedagogika. - Toshkent: O'qituvchi, 2013. - 384 b.
20. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Sano-standart, 2017. - 416 b.
21. Qodirov B.R. Kasb tanlashga yo'llashning psixologik asoslari. - Toshkent: Fan, 2012. - 168 b.
22. World Bank. Enhancing TVET for Youth and Migration in Uzbekistan. - Washington, DC: World Bank Publications, 2025. - 92 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.